
TIBBIYOT XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN QO'SHTEPA TUMANI HOKIMI I.NOVIKOVNING BAYRAM TABRIGI

Assalomu alaykum, qadri shifokorlar va tibbiyot sohasining fidoyilari!

Azaldan o'zining bilimi, iste'dod va mahorati, ko'z nuri va butun borlig'ini insonlar salomatligini saqlashdek zahmatli va ezgu ishga bag'ishlagan Sizdek sahovatli kasb egalarini "Tibbiyot xodimlari kuni" - kasb bayramingiz munosabati bilan chin dildan samimiy muborakbod etishga ijozat bergaysizlar.

Insoniyat paydo bo'libdiki, dardga chalinganda, xastalik xurujlarida, avvalo Siz azizlardan najot kutadilar, dardlariga davo istaydilar.

Insonlar o'zlariga ham, yaqinlariga ham Yaratgandan birinchi tilaklari sog'lik bo'lib, o'zaro duch kelishganda ham dastlab sog'lik so'raladi.

Shifokor kasbi sharaflil, mehnati esa ulug'dir! Siz kabi jonkuyar shifokorlar mehnati ila insonlarning hayoti asraladi, salomatligi mustahkamlanadi.

Qadri shifokorlar, hurmatli tibbiyot xodimlari!

Kasbingizda sharaf va mas'uliyat birdek ekanligi bois jamiyat hayotidagi beqiyos o'rningizni e'tirof etgan holda Siz azizlarni "Tibbiyot xodimlari kuni" bayrami bilan yana bir bor muborakbod etib, mehnat jamoalaringiz va xonadonlaringizga tinchlik-totuvlik, dasturxoningizga qut-baraka, salomatlik yo'lidagi mashaqqatli faoliyatingizda kuch va shijoat tilayman.

Hurmatingiz doim baland, sog'ligingiz hamisha mustahkam bo'lsin! Kasb bayramingiz muborak bo'lsin aziz shifokorlar!

2020-11-07 10:08:50